

## O'ZBEK CHOLG'U ASBOBLAR TURLARI

Maxanov Sherzodjon Irisboy o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

Instituti farg'ona mintaqaviy filiali

Xalq ijodiyoti kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184195>

Kalit so'zlar: O'zbek xalq cholg'ulari, tanbur, doira, rubob, g'ijjak.

Ключевые слова: Узбекские народные инструменты, танбур, дойра, рубоб, гиджак.

O'zbek xalq cholg'ulari xilma-xil bo'lganligi uchun uni takomillashtirish nihoyatda qiyin vazifa edi. Asta-sekinlik bilan an'anaviy cholg'ularning eski namunalari o'rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan yangi namunalar paydo bo'la boshladi, va mavjud bo'lgan musiqa asboblari yanada takomillashtirishga urinishlar bo'ldi. Chang, g'ijjak kabi cholg'ularga qo'shimcha torlar qo'yilgach, bu qo'shimcha torlar ularning ohang doirasini ancha kengaytirdi.

Tanbur — torli musiqa asbobi. O'zbek milliy cholg'ularidan biri hisoblanadi. O'zbek mumtoz maqomlari aynan tanbur cholg'usida ijro etilgan. Tanbur o'ng qo'lning ko'rsatgich barmog'iga maxsus noxun (mediator) taqib chalinadi. Chalinganda faqat birinchi simi chertib chalinadi, qolganlari esa sadolanib turish uchun xizmat qiladi.

Doira (childirma, chirmanda, doyra, daff, dapp) — o'zbek, tojik, uyg'ur va boshqa sharq xalqlarining cholg'u asbobi. Doira zarb bilan urib chalinadi. Gardishi o'rik, yong'oq yog'ochidan yasaladi. Gardishi ustidan tashqari tomondan teri bilan qoplanadi. Gardishning ich tomoniga tamburinnikiga o'xshash xalqachalar osiladi.

Rubob — torlu cholg'u asbobi. Noxun (mediator) bilan chertib chalinadi. O'zbek, tojik, uyg'ur, afg'on va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan.

G'ijjak — torli kamonli musiqa asbobi. O'zbek, tojik, turkman, uyg'urlarda va kamon, kemancha nomi bilan Kavkazorti mamlakatlarida keng tarqalgan. O'zbek cholg'u asboblari orkestrida g'ijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Akbarov Il. Musiqa lug'ati T., San'at 1990 yil.
2. Vizgo T. O'rta Osiyo musiqa asboblari. Moskva., 1980 yil.
3. Karomatov F. O'zbek chlg'uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980yil.

4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblarida ijrochilik tarixi. Toshkent, O'qituvchi 1995 yil.
5. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi.